



## ONA TILI VA INFORMATIKA FANLARIARO INTEGRATVLIK

Ashurbayeva R.Q.

Buxoro davlat tibbiyot instituti

O'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tillari

kafedrasining v.b. dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14209673>

### ARTICLE INFO

Received: 9 th November 2024

Accepted: 12th November 2024

Published: 23rd November 2024

### KEYWORDS

*informatika, integratsiya, ona tili, ta'lim tizimi, ta'lim jarayoni, axborot texnologiyasi, o'quv predmeti, boshqaruv, axborot tizimi, kompyuter*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola ona tili va informatika o'quv predmetlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarda zarur axborot texnologiyalari ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Maqolada informatika fanining asosiy yo'nalishlari, xususan, axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatishning texnik va nazariy asoslari, shuningdek, bu bilimlarning amaliy qo'llanilishi haqida so'z boradi.*

Ona tili o'quv predmetini informatika asoslari bilan bog'lab o'qitish davr kishilarini tayyorlash imkonini beradi. Axborot xususiyatlarini o'rganish, uni yig'ish, saqlash, qidirish, qayta ishlash, o'zgartirish hamda inson faoliyatining turli sohalarda foydalanish va tarqatish bilan shug'ullanadigan fan informatika deb ataladi. Informatikaning asosiy vazifasi – davlat boshqaruv organlarining sanoat va tadbirkorlik, ilmiy texnik hamda boshqa sohalardagi axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun moddiy-texnik bazani yaratishdir.

Informatikaning uchta asosiy yo'nalishi mavjud. Birinchi yo'nalish axborotni uzatish, yig'ish va qayta ishlashning texnik vositalarini rivojlantirish nazariyasi bilan bog'liq. U hisoblash komplekslarini, lokal va global hisoblash tarmoqlari, aloqa nazariyasini o'z ichiga olgan keng ilmiy-ommaviy sohadir. Ikkinchi yo'nalish ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha har xil amaliy vazifalarni hal etish yuzasidan turli kategoriyadagi foydalanuvchilar uchun texnik vositalar bilan samarali ishlashni tashkil qilish imkonini beradigan, dasturiy ta'minotni ishlab chiqishga yo'naltirilgan, matematik va amaliy fanlar kompleksini o'z ichiga olgan dasturlashtirishdir. Bu yo'nalishga algoritmlashtirish tillari nazariyasi, ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, izlash va qayta ishlash nazariyasi, tizimli hamda amaliy dasturlashtirish nazariyasi kiradi. Axborot tizimini yaratishda ikkinchi yo'nalishni umumiy va amaliy dasturiy ta'minot deb atash qabul qilingan. Uchinchi yo'nalish avtomatlashtirilgan usulda turli darajadagi vazifalarni hal etish modellari, algoritmlari, tartibi, texnologiyasini ishlab chiqish va tashkil qilishdir. Informatikaning bu bo'limi hozir qishloq xo'jaligi sohasida o'ta muhim va dolzarb sanaladi. Informatikaning moddiy-texnik bazasi boshqaruv faoliyatining turli sohasi va darajalarida ishlayotgan mutaxassislar uchun avtomatlashtirilgan ish joylaridan keng foydalanish imkonini beradi va, shuningdek, professional-ekspert (ekspert tizimi) darajasida qaror qabul qilishga qodir bo'lgan ixtisoslashtirilgan predmet sohasida hisoblash tizimini va axborot-kommunikatsiya tarmog'ini yaratish imkonini yuzaga keltiradi.

Maktabda o'qituvchilar boshqa o'quv predmetlari qatori o'quvchilarini ona tili mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan istalgan axborotni kompyuter texnologiyalaridan foydalanib topa bilish, qayta ishlay olish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlashga erishmoqlari zarur.

7-sinfda ona tili darslarini informatika va axborot texnologiyalari o'quv predmeti bilan bog'lab o'qitish mumkin. Bunda, asosan, 7-sinf ona tili darsligida[1]“Ijtimoiy tarmoqlar” mavzusini o'tishda 7-sinf informatika va axborot texnologiyalari darsligidagi “Axborotli jarayonlar” matnidan foydalanildi (Qarang: 3-ilova)[2]. Shu asosda 6-sinfda o'tilgan so'zlarning yasalishi yuzasidan takrorlash o'tkazildi.

1-topshiriq. Berilgan matnni diqqat bilan o'qing va uning mazmunini o'z so'zingiz bilan qayta (og'zaki) bayon eting.

2-topshiriq. Berilgan matn tarkibidagi yasama so'zlarni aniqlang va quyidagi jadvalga joylashtiring.

sodda yasama fe'l	sodda yasama ot	sodda yasama sifat	sodda yasama ravish
ata(moq)	Bilim	Xususiyatli	
foydalan(moq)	bo'lak	noto'g'ri	
ifodala(moq)	ko'rinish	to'liq	
chuqurlash(moq)	yo'qlik	tanish	
kengay(moq)		bog'liq	
bog'la(moq)		axborotli	
ishla(moq)			
nusxala(moq)			
esla(moq)			
to'pla(moq)			
izla(moq)			
soddalash(moq)			
kodla(moq)			
formatla(moq)			
birlash(moq)			
bo'lakla(moq)			

3-topshiriq. Har bir sodda yasama so'z ishtirokida kompyuter yordamida bajariladigan amallar va ularning inson hayotidagi o'rni xususida gaplar tuzing.

4-topshiriq. Matn tarkibidan tuzilishiga ko'ra qo'shma so'zlarni toping va ularning qaysi birida so'z yasalishi borligini aniqlang.

**qo'shma fe'llar:** axborot bermoq, axborot olmoq, foydalana olmoq, yodda saqlamoq, kerak bo'lmoq, hosil qilmoq, his etmoq, eslab qolmoq, ega bo'lmoq, qaror qabul qilmoq, tasavvur qilmoq, asos bo'lmoq.

Ona tili va informatika o'quv predmetlarini birlashtirish va uning o'quvchilarda axborot texnologiyalari ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bilan shug'ullanuvchi informatika fani o'quvchilarga so'z yasash va kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Informatika fanining uchta asosiy yo'nalishi - axborot uzatish, dasturlash va avtomatizatsiya - bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni tushunish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi. Maktabda ona tili va informatika o'quv dasturlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va samarali ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga erishish mumkin. Shu bilan birga, bu yondashuv o'quvchilarga informatika va axborot texnologiyalarining ona tilidagi amaliy qo'llanilishini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: RTM, 2022. –224 b. –5-b.
2. Boltayev B., Mahkamov M., Azamatov A., Rahmonqulova S. Informasiya va axborot texnologiyalari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2017. –89 b. –10-b.
3. Ashurbayeva R.K. Effective methods of teaching the mother tongue in the education system// "International Engineering Journal For Research & Development". –Vol.5 Issue 7E- ISSN NO: -2349-0721. (Impact Factor: SJIF = 6.554)
4. Ashurbayeva R.K. Integrative approaches and methods towards the implementation in the system of administrative education// International Journal of Economy and Innovation GOSPODARKA I INNOWACJE. Volume: 27/2022 Economy and Innovation ISSN:2545-0573/61-65-p.
5. Ashurbayeva R.K. Reforming the independent system of Uzbekistan for the improvement of integrated education//Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture Innovative Academy Research Support Center. Published Date:-17 05-2022.– 64-70-p. (Impact Factor: SJIF = 6.051)
6. Ashurbayeva R.K. Sharqda integrativ ta'limotning ildizi//European international journal of multidisciplinary research and management studies. Volume: 02 Issue: 08 August 2022 Published Date: – 30-08-2022. –89-92-p.
7. Ashurbayeva R.Q THE CONCEPT OF INTEGRATION AND ITS APPLICATION IN EDUCATION SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2020 Issue: 02 Volume: 82 Published: 21.02. 2020 http
8. Ashurbayeva R.K. Ways of effective Implementation of Integration. Middle European Scientific Bulletin, 2021
9. Ashurbayeva R.K. EFFECTIVE METHODS OF TEACHING THE MOTHER TONGUE IN THE EDUCATION SYSTEM RAK Sangole - International Engineering Journal For Research & ..., 2020